

**“MAQSUD SHAYXZODA RUSTAVELINING “YO‘LBARS
TERISINI YOPINGAN PAXLAVON”(HAMKORLIK) TARJIMA
MAHSULI”**

*Mo‘minjonova Shaxina Mo‘minjon qizi
Toshkent davlat transport universitet TNI-7 talabasi*

Annotatsiya: *O‘zbek adabiyotining buyuk namoyondalaridan – G‘afur G‘ulom va Oybek kabi otashnafas san’atkorlar safida ijod qilgan “Buyuk xizmatlari uchun “ orden sohibi va atoqli shoir, tarjimon, tanqidchi Maqsud Shayxzoda adabiy bilim doirasining kengayishi, ijodining mumtoz jahon yozuvchilari badiiy tajribasi bilan boyishida tarjima qilgan asarlarining o‘rni beqiyos.Xususan, U Shota Rustavelning “Yo‘lbars terisini yopingan paxlavon”nomli (hamkorlikdagi) eposini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.Shuningdek, bu kitobning kitobxonlar nazdida tutgan o‘rni va vazifasi haqida yoritilib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *atoqli, shoir, tarjimon, mumtoz, badiiy, tarjima, epo.*

SHOTA RUSTAVEL’S EPIC “PAKHLAVAN COVERED WITH TIGER SKIN” (IN COLLABORATION)

Abstract: *Maksud Shaykhzoda, the recipient of the Order of Merit and a famous poet, translator, critic, who created one of the thousand great representatives of Uzbek literature in the ranks of fiery artists such as Gafur Ghulam and Oybek, has an incomparable role in enriching the scope of literary knowledge with the artistic experience of classical wordl writers.In particular, he translated Shota Rustavel’s epic “Pakhlavan covered with tiger skin” (in collaboration) into Uzbek language.Also, the role and functions of this book in the eyes of the readers will be explained.*

Key words: *Famous, poet, translator, classic, artistic,translation, epic.*

**ПРЕВОД ПРОИЗВЕДЕНИЯ ШОТА РУСТАВЕЛЯ “ ПАХЛАВАН,
ПОКРЫТЫЙ ТИГРОВОЙ ШКУРОЙ” (СОВМЕСТНО)**

Аннотация: *Несравненная роль в обогащении сферы литературных знаний художественны опытом писателей-классиков мира принадлежит Максуду Шейхзодеб кавалеру ордена За заслуги и известному поэту переводчику критиком создававшему одного из тысяч великих представителей узбекской литературы в рядах таких пламенных художников как Гафур Гулам и Ойбек В частности он перевел Тигровую шкуру Шота Руставеля Янинан мастерски перевел (совместный) эпос “Пахлаван, покрытый тигрово шкурой “ на узбекски язык Также будет объяснена роль и функции этой кнѳт в глазах читателей.*

Ключевые слова: *знамениты, поэт ,переводчик, классический, художественный, перевод, эпопея.*

Kirish: Zabardast olim Maqsud Shayxzoda nomi nafaqat o‘zbek kitobxonlari, balki qardosh ozarboyjon o‘quvchisi uchun ham ardoqli nom.Chunki iste’dodli shoir Ozarboyjon diyorida tug‘ilib ijodkor sifatida O‘zbekistonda qalam sohibi sifatida kamol topdi. Shuningdek, tarjimon sifatida o‘zbek mumtozi va zamonaviy adabiyotining Bobur, Muqimiy, G‘afur G‘ulom, Oybek asarlari bilan bir qatorda jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Shota Rustaveli, A.S.Pushkin, N.A.Nekrasov, A.P.Chexov, M.Y.Lermontov, V.Shekspir kabi namoyondalarning bir qancha durona asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi. O‘rta sr gruzin adabiyotining buyuk namoyandasi Shota Rustavelining hayoti va ijodi haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Faqat uning bizgacha yetib kelgan “Yo‘lbars tersini yopingan pahlavon” nomli genial asar. Shu asnosida, buyuk shoirning XII asrda (taxminan 1160/ 1166-1216 yillarda) yashab ijod etganligi va uning mashhur dostoni 1189-122 yillar oralig‘ida yozilgani taxmin qilinadi. Shu qatorda , Maqsud Shayxzoda pedagog olim va shoir sifatida ham talaygina adabiyotshunos, shoir va tanqidchilar avlodining yetishib chiqishiga munosib hissa qo‘shdi.

Asosiy qism: Jumladan, Gruzin shoiri ,Yangi gruzin tili asoschisi- Shota Rustavelining “Yo‘lbars terisini yopingan paxlavon” nomli doston. Uning kirish

qismida bu kitobni Shota Rustaveli gruzin malikalaridan biri Tamaraga bag'ishlanganligi haqida ma'lumot berilgan. Buning isboti sifatida:

*Tamaraning hashamati qamashtirar ko'zlarni,
Gulchambarday o'rab berdim madhiyali so'zlarni.
Aqiq ko'zning qo'llaridan siyoh ichdi qalamim,
Nishtar kabi yuraklarni tilsin kuyim-alamim.*

Ushbu jahon adabiyoti durdonalaridan biri- ijtimoiy, axloqiy masalalar adibning yuksak ideallari bilan qo'sib talqin qilingan. Asarda qahramonlik, chin insoniy myhabbat, oliyhimmatlik, poklik ulug'lanib zulmkorlik qoralangan. Shuningdek, ushbu asar bir qancha jahon xalqlari tillariga ,xususan, o'zbek tiliga Mirtemir va Maqsud Shayxzoda hamkorlikda katta mahorat bilan tarjima qilganlar. Bu doston O'rta Sharq adabiyotlarida yaratilgan ko'p asarlardan o'zining diniy- mistik moyivlardan holi bo'lganligi bilan ajralib turadi. (fors- muqaddima, so'z boshi) kirish so'z, bosh so'z. Asosan kulliyot, devon, doston va nasriy asarlarda, shuningdek ushbu epic debocha bilan boshlangan. Asar muallifi yoki kotib tomonidan yoziladi va unda kitobning mazmuni, muallifning qisqacha tarjimai holi, maqsadi bayon qilinadi. Xususan, asarda :

Debocha

*Sen, rabboniy qudratingola koinotni yaratding,
Bu rango-rang yer yuzini xaloyiqqa qaratding.
Ko'kdan engan nafasingdan barcha maxluq topdi jon,*

O'zing monand sultonlarni taxtda qilding hukmron... - deya muallif o'z asarini Tangriga gunohlarni kechirishini, iblisdan panohda bo'lishlikni iltijo qilish bilan boshlangan.

Mashaqatli yo'llar yurib Avtandil ko'p urindi,

Tog' bag'rida soyalikda birdan ko'zga chalindi-

Qora tulpor, yugani bo'sh, o'tlanardi u yerda,

“Tarielning izin topdim!” deb o'yladi sarkarda.

Inju tishli, gul dudoqli Tariel va Avtandil,

Ilonlarni uyasidan chiqaradi shirin til

Avtandil der: “ Men do'st uchun jonimni ham tikaman,

Seni sobit bo'lmoqlikka chaqiraman, aka, men!

Javob berdi Tarielki: “ Maslahting ko'p maqbul,-

Oqillarga ustoz ma'qul: tentaklarga noma'qul.

Bu jumla orqali: nafaqat do'stlikni, balki ustoz haqida ham ma'qbul maslahatlarni Avtandil Tarielga aytdi, yani: Oqillar, fozilga ustoz tentaklarga, nooqil, tentaklarga noma'qulligi ta'kidlangan.

Dostonning asosiy qahramonlari Tariel, Aftandil va Faridun mardlik va qahramonlik timsoli sifatida gavdallaniladi. Avtor Neston- Darajon singari oqila va mard ayol obrazlari o'zining ideal qahramonlari jumlasiga kiritadi. Asarda turli xalq vakillari-Avtandil(arab), Tariel (hind) obrazlari orqali xalqlar do'stligi, Neston – Darjon misolida esa ayollarga xos ajoyib insoniy fazilatlar, oqila va mard hislatlar umumlashtirilgan .

Tariel va Neston-Darijonning to'yi sarlavhasida:

Murodiga yetdi butkul Tariel va Darijon

Yetti iqlim farmonbardor, mamlakati shodumon,

Badbaxt kunlar unutilib, sevinchlarga bo'ldi g'arq.

Achchiq totmay, shirin hayot qadrin kishi qilmas farq!

Mol-davlatga botdi barcha, go'yo bo'ron sepd qor,

Yetim-yesir xayr oldi- dushmanlarda yo'q mador-

Yov yurtida qo'zichoqlar sut emishga zor bo'ldi.

Bahodirlar o'lkasida bo'ri qo'yga yor bo'ldi.

Ikki juftlikning to'y oqshomi bo'lganligi, shod-xurram holatlari yetti iqlimga yetganligi, mashaqatlar orta qolganligi. Shu o'rinda, inson hayotning qorong'u tomonini ko'rmaganicha, hayot qadr-qimmatini, farqini bilmasligi muallifning fikrini Maqsud Shayxzoda mahorat bilan ifodalagan.

Xotima qismida:

Dunyo o'zi bevfodir, dunyo yo'li jafokor.

Hayot esa mijja qoqqan muhlat qadar qisqa, tor.

Dovdiramoq nega lozim? Tole ko'p beomondir.

Lutf aylasa, har ikkala dunyo umri osondir.

Bu qismda asosiysi qofiya emas, balki hayotga haqiqiy jabhadan qarash natijasi hisoblanadi. Sababi, dunyo haqiqatdan ham Navoiy ta'kidlagani kabi foniy, uning mashaqatli va jafokor. Shu bilan birga, mijja qoqqudar qisqa. Tarjimon muallifning maqsadini, yani inson dovdirab yoki mahzun bo'lishi noo'rinligi, tole beomonligi bois inson lutf qilsa va harakat qiladigan bo'lsa har ikka dunyo ham obod va osonligi ta'kidlab o'tilgan.

Atoqli tarjimonlar asar orqali 12-asrda Gruziyada yashagan ilg'or kishilarning eng yaxshi fazilatlarini, shoir orzu qilgan insonparvar podsho boshchiligida yagona, birlashgan, kuchli davlat tuzilishini, adibning yuksak ideallar bilan qo'shib talqin qilishgan. Dostonda inson, insonning muhabbati, qahramonligi ulug'lanadi, xalqlar o'rtsida barqaror do'stlik o'rnatilishi g'oyalari tarannum etiladi:

Avtandil der: “ Men do ‘st uchun jonimni ham tikaman,

Seni sobit bo ‘lmoqlikka chaqiraman, aka, men!

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, Maqsud Shayxzoda she’rlar, badiiy asarlar, adabiy tanqid sohasida samarali ijod qilish bilan bir qatorda, tarjimonlik sohasida ham barakali ijod qilgan. Shoir tarjima jarayonida qardosh xalqlar va jahon adabiyoti klassiklarining mahorat maktabidan ta’lim oldi, ilg’or an’analarini o’zida mujassamlashtirgan she’rlar yozdi. Yozuvchi tarjimada asar badiiyatini qayta yaratish masalasiga ham jiddiy e’tibor qaratadi. Ta’kidlash lozimki, Shota Rustavelining mazkur asari Sharq mumtoz adabiyotida yaratilgan epic dostonlar ta’sirida yozilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot ikkinchi qism umumiy o’rta ta’lim maktablarining 8-sinf uchun darslik-majmuasi. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matba uyi T-2014.
2. Maqsud Shayxzoda. Ikki xalq dilbandi.
3. Zokirov M., Maqsud Shayxzoda. Adabiytanqidiy ocherk, T., 1969